F.Schneider va D.Enste[2] maqolasida yashirin iqtisodiyot tushunchasi keng miqyosda ochib berilgan. Mualliflar yashirin iqtisodiyot hajmi, shakllanish sabablari (soliq bosimi, tartibga solish darajasi, ishsizlik) va uning iqtisodiyotga salbiy ta'siri – soliq tushumlari kamayishi, raqobat muvozanatining buzilishi – tahlil qilinadi. Tadqiqot statistik baholashlar asosida mamlakatlar kesimida yashirin iqtisodiyot ulushini aniqlash metodikasini taklif etadi. Ushbu maqola mavzuning nazariy asoslarini chuqur anglash uchun muhim manbadir.

E.Feige[3] o'z ilmiy ishida yashirin iqtisodiyot va norasmiy sektor o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi hamda ularni baholashda yangi institutsional iqtisodiyot yondashuvini taklif qiladi. Muallif institutlarning zaifligi, mulk huquqlarining himoyalanganligi va rasmiy tizimga ishonchsizlik yashirin iqtisodiyotning ildizlari ekanini ta'kidlaydi. U, shuningdek, yashirin faoliyatlar iqtisodiy samaradorlikni kamaytirishi va makroiqtisodiy rejalashtirishni qiyinlashtirishini asoslaydi.

C.Williams va J.Windebank[4] maqolasida yashirin iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. Mualliflar norasmiy mehnatning sabablari faqat iqtisodiy emas, balki madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi. Masalan, oilaviy yordam, jamoaviy xizmatlar yoki ishonch asosida bajariladigan ishlar rasmiy statistikalarda aks etmasligi mumkin. Yashirin iqtisodiyotning strukturaviy jihatlarini o'rganishda sotsiologik yondashuvning afzalliklarini asoslaydi.

Y.Davydov[5] Rossiya misolida yashirin iqtisodiyotning shakllanish omillari, turlari va unga qarshi kurashish usullarini tahlil qiladi. Muallif soliq tizimidagi murakkablik, davlat boshqaruvidagi korrupsiya va past nazorat darajasi yashirin iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, u davlat nazoratining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, fuqarolik ongini oshirish va iqtisodiy rag'batlar yaratishni asosiy yechimlar sifatida tavsiya etadi.

L.Medina va F.Schneider[6] tadqiqotida 158 ta davlat uchun yashirin iqtisodiyot hajmi 1991-2017-yillar oralig'ida baholangan. Mualliflar yashirin iqtisodiyotning rasmiy sektor bilan o'zaro ta'siri, uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiruvchi omil sifatida ko'rsatadi. Asarda valyuta tartibga solinishi, tartibotlar sifati va institutsional ishonch darajasi yashirin iqtisodiyot miqdoriga qanday ta'sir qilishi empirik usulda isbotlangan.

B.Torgler va F.Schneider[7] tadqiqotida yashirin iqtisodiyot hajmi bilan soliq madaniyati, hukumat sifati va institutlarning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik panel ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Mualliflar ta'kidlaganidek, fuqarolar o'z davlatiga ishonmagan, korrupsiya yuqori bo'lgan muhitda yashirin iqtisodiyot ulushi ko'proq bo'ladi. Tadqiqot shuningdek, soliq madaniyatini oshirish va samarali boshqaruv institutlarini yaratish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda asosiy vosita ekanini ko'rsatadi.

J.Ihrig va K.Moe[8] o'z maqolasida norasmiy sektorning hukumat siyosatlariga qanday javob berishini model asosida tahlil qilgan. Ular rasmiy sektorni haddan tashqari tartibga solish, yuqori soliq stavkalari va cheklolarning norasmiy faoliyatni rag'batlantirishini asoslab beradi. Shuningdek, norasmiy sektorning mehnat bozoriga va soliq bazasiga salbiy ta'siri empirik dalillar orqali yoritiladi. Tadqiqot natijalari samarali siyosiy islohotlar zarurligini ko'rsatadi.

N.Loayza[9] o'tkazgan tadqiqotda yashirin iqtisodiyot modelini ishlab chiqqan va uni Lotin Amerikasi davlatlari ma'lumotlari asosida amaliy tahlil qilgan. U yashirin iqtisodiyot darajasi davlatning tartibga solish darajasi, soliqlar og'irligi va qonunlar ijrosiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Muallif shuningdek, norasmiy sektorni qisqartirish uchun islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, huquqiy tizimni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5073459>



C.Willams[10] muallifligidagi kitob yashirin iqtisodiy faoliyatlarni individual, ijtimoiy va institutsional darajada chuqur tahlil qiladi. Williams rasmiy iqtisodiyotga qo'shilmagan faoliyatlarning sabablarini – ishonchsizlik, tartibotlar bilan kelishmovchilik va iqtisodiy zaiflik – asoslab beradi. Kitobda Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi holatlar solishtirma tahlil qilinadi. Muallif yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun ko'p darajali (multi-level) yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

A.Buehn va F.Schneider[11] tadqiqotida 162 ta davlatda yashirin iqtisodiyotning 1999–2007 yillardagi o'rtacha ulushi hisoblab chiqilgan. Mualliflar yashirin iqtisodiyotning sabablari sifatida soliqqa tortish darajasi, tartibga solish kuchi, ishsizlik darajasi va institutsional sifatsizlikni ko'rsatadi. Tadqiqotda yuqori yashirin iqtisodiyotga ega mamlakatlarda byudjet tushumlari kamaygani, rasmiy bandlik qisqargani va ijtimoiy tengsizlik ortgani qayd etilgan.

R.Ergashev[12] O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyot muammosini milliy kontekstdan kelib chiqib tahlil qiladi. Muallifga ko'ra, O'zbekistonda hujjatlashtirilmagan mehnat, naqd pul aylanishi va soliqdan qochish kabi shakllar keng tarqalgan. U yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun raqamli iqtisodiyotni joriy etish, soliq islohotlari va aholining huquqiy ongini oshirish kabi chora-tadbirlarni taklif etadi. Tadqiqot mamlakat realiyalariga mos tavsiyalarni taqdim etadi.

K.Gërxxhani[13] tadqiqotida Albaniya misolida o'tish davrida yashirin iqtisodiyot hajmining ortishi davlat institutlari bilan jamiyat o'rtasidagi "institutsional to'qnashuv" natijasi ekanini isbotlaydi. Rasmiy tizimga ishonchsizlik, huquqiy noaniqlik va norasmiy tarmoqlarning ijtimoiy maqbulligi yashirin iqtisodiyotni kengaytirgan. Muallif bu holatni Feige nazariyasi asosida tahlil qilib, institutsional muvofiqlikni tiklash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy tizimga ko'rsatadigan ta'siri keng ko'lamli va ko'p qirrali bo'lib, u jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida seziladi. Eng avvalo, bu holat davlat budjetiga tushadigan soliqlar hajmining kamayishiga olib keladi. Soliq tushumlarining yetarli emasligi esa o'z navbatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va boshqa muhim sohalarini moliyalashtirishda to'siqlarga sabab bo'ladi. Mablag' taqchilligi davlatning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi imkoniyatlarini kamaytiradi va aholi turmush darajasini ko'tarilishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyot yuqori darajada bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatni rejalashtirish va samarali boshqarish ancha murakkablashadi. Chunki bu holatda rasmiy statistik ma'lumotlar iqtisodiy jarayonlarning haqiqiy ko'lamini to'liq aks ettira olmaydi.

Jahon banki tomonidan olib borilgan 2023-yilgi tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot nisbatan nazorat ostida bo'ladi va uning YaIMdagi ulushi odatda 8–12% atrofida saqlanadi. Bu holat, bir tomondan, rasmiy iqtisodiy faoliyat uchun yaratilgan qulay sharoitlar, iqtisodiy institutlarning ishonchiligi va qonun ustuvorligi bilan bevosita bog'liq. Boshqa tomondan esa, raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi soliq nazorati tizimining mavjudligi, ishbilarmonlik muhitining ochiqligi, shaffof davlat boshqaruvi hamda aholi o'rtasida rasmiy sektor bilan hamkorlik qilish madaniyatining shakllanganligi kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Bunday mamlakatlarda fuqarolar rasmiy iqtisodiyotda ishtirok etish orqali ijtimoiy himoya tizimlaridan, pensiya jamg'armalaridan va tibbiy sug'urtadan keng foydalana oladilar. Shu bois, yashirin faoliyat yuritish ehtiyoji past bo'ladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy manfaatlar rasmiy sektor foydasiga ishlaydi (1-jadval).

1-jadval. Rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi (%) [14]²

Mamlakat	Yashirin iqtisodiyot ulushi
Shvetsariya	7,2%
AQSH	8,4%
Yaponiya	9,6%
Kanada	9,8%
Buyuk Britaniya	10,1%

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Germaniya	10,2%
Avstraliya	10,3%
Janubiy Koreya	11,5%

Ushbu jadvalda jahondagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushini ko'rishimiz mumkin. Barcha davlatlarda bu miqdor turlicha farq qiladi. Masalan, Shveysariya yashirin iqtisodiyot ulushi atigi 7.2 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mamlakatda raqamli soliq tizimining keng joriy etilgani, fuqarolarning rasmiy mehnat tizimiga yuqori darajada integratsiyalashgani va davlatga ishonch yuqoriligi bilan izohlanadi. AQShda esa bu ko'rsatkich 8.4% ni tashkil qilgan bo'lib, mamlakatning kuchli soliq nazorati, samarali jazo mexanizmlari va keng qamrovli rasmiy sektor mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

Germaniyada yashirin iqtisodiyot ulushi 10.2% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich Yevroittifoqdagi eng qulay soliq va huquqiy muhitlardan biri bo'lishiga qaramasdan, ba'zi kichik biznes faoliyatlarida rasmiylashtirishdan bo'yin tovlash holatlari mavjudligidan dalolat beradi. Yaponiya va Janubiy Koreyada ham yashirin iqtisodiyot nisbatan past bo'lsa-da (mos ravishda 9.6% va 11.5%), bu mamlakatlarda ijtimoiy bosim, davlat organlariga yuqori ishonch va axloqiy yondashuvlar rasmiy sektorni ustuvor qiladi.

Buyuk Britaniya va Kanadada yashirin iqtisodiyotning 10% atrofida ekanligi, u yerda kichik va o'rta biznesning ko'pligi, xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat munosabatlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, bu davlatlar fuqarolarning ijtimoiy ta'minot tizimiga rasmiy ishtirokini rag'batlantirish orqali yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini pasaytirishga erishmoqda.

Rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ko'lamiga ancha yuqori bo'lib, ko'pincha yalpi ichki mahsulotning 25–45 foizigacha yetadi. Bu guruhdagi mamlakatlarda iqtisodiy faoliyatning katta qismi rasmiy statistik hisobdan tashqarida qolmoqda. (2-jadval).

2-jadval. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi (%) [15]³

Mamlakat	Yashirin iqtisodiyot ulushi
Hindiston	31,6%
Indoneziya	34,6%
Filippin	37,1%
Misr	38,9%
Nigeriya	45,3%
Braziliya	32,1%
Vyetnam	33,8%
Pokiston	36,4%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot miqdori baland va o'suvchan.. Masalan, Hindistonda yashirin iqtisodiyotning YIMdagi ulushi 31.6% deb baholangan. Bu holat mamlakatning katta demografik hajmi, norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan ishchi kuchi va soliq tizimidagi murakkabliklar bilan izohlanadi.

Indoneziyada bu ko'rsatkich 34.6% ni tashkil etsa, Filippinda 37.1% atrofida. Bu davlatlarda norasmiy savdo, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi faoliyatlari iqtisodiyotning muhim qismini tashkil etadi. Misr va Nigeriyada esa yashirin iqtisodiyot ulushi mos ravishda 38.9% va 45.3% ga teng bo'lib, bu mamlakatlardagi rasmiy iqtisodiy tizimga bo'lgan ishonch pastligi, korrupsiya darajasining yuqoriligi va huquqiy institutlarning zaifligi bilan bog'liq.

Yashirin iqtisodiyotning keng tarqalishi ushbu mamlakatlarda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, davlat byudjetining zaiflashuvi, rasmiy bandlikning qisqarishi kabi jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.


So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot hajmi sezilarli darajada o'zgarib kelmoqda. 2005—2022-yillar oralig'ida yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31 foizdan 53 foizgacha o'sgan. Ayniqsa, 2017-yildagi iqtisodiy islohotlar, xususan, pul-kredit va valyuta siyosatining erkinlashtirilishi, naqd pul va xorijiy valyutani rasmiy ravishda erkin ayirboshlash imkoniyatining yaratilishi muhim bosqich bo'ldi. Bu o'zgarishlar bir tomondan norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga turtki bergan bo'lsa-da, boshqa tomondan, rasmiy sektor va norasmiy sektor o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirib, yashirin iqtisodiyotning real hajmini aniqlash imkonini berdi.

3 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Shuningdek, o'sha davrda iqtisodiyotda naqd pul aylanishining keskin ortishi kuzatilib, bu ko'rsatkich 59 foizgacha yetgan. Biroq 2018-yildan boshlab muomaladagi bank plastik kartalari, infokiosklar, bankomatlar va elektron to'lov tizimlarining jadal kengayishi fonida naqd pulsiz to'lovlar ulushi ortdi. Bu esa, o'z navbatida, yashirin iqtisodiyot ko'lamining qisqarishiga xizmat qildi. 2021-yilga kelib yashirin iqtisodiyot hajmi 42 foizgacha pasaygani qayd etilgan. Bundan tashqari, soliq ma'murchiligini soddalashtirish, raqamlashtirish jarayonlari va elektron hisob-faktura tizimining joriy etilishi ham muhim omillardan biri bo'ldi.

Ushbu tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda moliyaviy inklyuziya, raqamli to'lov tizimlari va samarali soliq siyosati muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mazkur sohada tizimli monitoring olib borish va statistik aniqlikni ta'minlash zarurati mavjud (1-rasm).



1-rasm.Yashirin iqtisodiyot va naqd pul aylanish tezligi[16]

1-rasmdagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, 2005—2022-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotidagi yashirin iqtisodiyot hajmi va naqd pul aylanish tezligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, yashirin iqtisodiyot hajmi 2005-yildagi 30,9% dan boshlab 2017-yilda 58,9% ga yetgan, bu davrda naqd pul aylanishi ham sezilarli darajada oshgan (24,1%). Ayniqsa, 2016—2017-yillarda naqd pul muomalasi va valyuta cheklovlarining bekor qilinishi yashirin iqtisodiyot ulushining keskin oshishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, 2018—2021-yillarda bu ko'rsatkichda pasayish kuzatiladi: yashirin iqtisodiyot hajmi 54,6% dan 42,2% gacha kamaygan, bu esa soliq islohotlari, elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi va iqtisodiy shaffoflikning ortishi bilan izohlanadi. 2022-yilda esa ko'rsatkich qaytadan 53,2% ga oshgan bo'lib, bu pul aylanish tezligidagi pasayish (28,5%dan 23,9%ga) bilan birga kuzatilgan. Umuman, diagrammadagi tendensiyalar yashirin iqtisodiyot va naqd pul aylanishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi: naqd pul ustuvor bo'lgan davrlarda norasmiy iqtisodiyot hajmi ham ortadi. 2022-yilda O'zbekistonda pul o'tkazmalari hajmining keskin ortishi iqtisodiyotda naqd pul massasining jiddiy o'sishiga sabab bo'ldi. Natijada, muomaladagi naqd pulning o'rtacha miqdori 2021-yilga nisbatan 43,5 foizga ko'paydi, bu esa yashirin iqtisodiyot ko'lamining 53 foizgacha yetishiga olib keldi. Naqd pul hajmidagi bu o'sish, bir tomondan, aholining tijorat banklariga sotgan xorijiy valyuta miqdorining 2021-yilga qaraganda 1,7 baravar ortganligi bilan bog'liq bo'lgan.

Yashirin iqtisodiyot iqtisodiy tizimga bevosita va bilvosita kanallar orqali murakkab va zanjirsimon ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, norasmiy faoliyatdan olinadigan daromadlar rasmiy statistikada aks etmagani sababli, bu daromadlar ustidan soliq to'lanmaydi. Natijada, davlat budjeti kutilgan soliq tushumlaridan mahrum bo'ladi. Bu holat ijtimoiy sohalar – xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirish kabi strategik yo'nalishlarning moliyaviy ta'minotini pasaytiradi.

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining o'zgarishi esa fuqarolarda rasmiy tashkilotlarga nisbatan ishonchning kamayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, yana ko'proq fuqarolarni rasmiy iqtisodiy muhitdan chiqib ketish, ya'ni norasmiy yoki yashirin faoliyatga o'tishga undaydi. Natijada, iqtisodiy tizimda "salbiy aylanish zanjiri" (negative feedback loop) yuzaga keladi. Bu zanjir davom etar ekan, iqtisodiyotning umumiy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va mehnat bozorining samaradorligi pasaya boradi.



Ushbu jarayon ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun dolzarbdir. Zero, davlat resurslari cheklangan, aholining ijtimoiy ehtiyojlari yuqori bo'lgan sharoitda yashirin iqtisodiyot tufayli yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlar makroiqtisodiy barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Shu bois, bunday oqibatlarining oldini olish uchun kompleks yondashuv zarur: rasmiy sektorga kirishni soddalashtirish, soliqlar tortish tizimini isloh qilish va fuqarolar ongida iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirish muhim vazifa sifatida turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashirin iqtisodiyot — zamonaviy davlatlar uchun murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lib, uning miqyosi va ta'siri mamlakatlar iqtisodiy siyosatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi nisbatan past bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich juda yuqori va iqtisodiy barqarorlik uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. O'zbekiston misolida esa norasmiy mehnat bandligi va soliqlar tortilmaydigan iqtisodiy faoliyat iqtisodiy rejalashtirish, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, aholi farovonligi va institutsional ishonch darajasiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yashirin iqtisodiyot nafaqat davlat byudjetining daromad qismini kamaytiradi, balki iqtisodiy tizimdagi ochiqlik, raqobatbardoshlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini izdan chiqaradi. Diagramma orqali yoritilganidek, yashirin faoliyat oqibatlari zanjirsimon tus olib, tizim ichida ishonchsizlikni kuchaytiradi va norasmiylikni yanada chuqurlashtiradi. Demak, bu muammo bilan kurashish faqat nazorat yoki jazoga asoslanmasdan, kompleks yondashuv va chuqur institutsional islohotlar talab etadi.

O'tkazilgan izlanishlar asosida quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Soliqlar tortish tizimini soddalashtirish va adolatli qilish: kichik va o'rta tadbirkorlar uchun yengillashtirilgan soliqlar tortish tartiblarini keng joriy etish, soliq yukini kamaytirish orqali rasmiy sektorga o'tishni rag'batlantirish lozim.

Norasmiy bandlikni rasmiylashtirish bo'yicha tizimli choralar: vaqtinchalik mehnat shartnomalarini elektron ro'yxatga olish, mobil ilovalar orqali ro'yxatdan o'tish va soddalashtirilgan ijtimoiy to'lov tizimlarini joriy etish orqali rasmiy mehnatga kirishni osonlashtirish kerak.

Raqamli iqtisodiyotni kengaytirish va nazoratni avtomatlashtirish: soliq va moliyaviy operatsiyalarni raqamlashtirish orqali yashirin faoliyatni aniqlash va avtomatik monitoring qilish imkoniyatlarini kuchaytirish, "cashless" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5073459>
2. Schneider, F., & Enste, D. H. (2000). "Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences." *Journal of Economic Literature*, 38(1), 77–114.
3. Feige, E. L. (1990). "Defining and Estimating Underground and Informal Economies: The New Institutional Economics Approach." *World Development*, 18(7), 989–1002.
4. Williams, C. C., & Windebank, J. (2001). "Reconceptualising Paid Informal Work: Some Lessons from the United Kingdom." *International Sociology*, 16(1), 23–45.
5. Давыдов, Ю. Н. (2018). «Теневая экономика: природа, причины и методы противодействия.» *Вопросы экономики и права*, 6 (2), 34–41.
6. Medina, L., & Schneider, F. (2019). "Shedding Light on the Shadow Economy: A Global Database and the Interaction with the Official One." CESifo Working Paper No. 7981.
7. Torgler, B., & Schneider, F. (2007). "Shadow Economy, Tax Morale, Governance and Institutional Quality: A Panel Analysis." *IZA Discussion Paper No. 2563*.
8. Ihrig, J., & Moe, K. S. (2004). "Lurking in the Shadows: The Informal Sector and Government Policy." *Journal of Development Economics*, 73(2), 541–557.
9. Loayza, N. V. (1996). "The Economics of the Informal Sector: A Simple Model and Some Empirical Evidence from Latin America." *Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy*, 45, 129–162.
10. Williams, C. C. (2015). *Explaining the Informal Economy: An Exploratory Analysis*. Routledge.
11. Buehn, A., & Schneider, F. (2012). "Shadow Economies Around the World: Novel Insights, Accepted Knowledge, and New Estimates." *International Tax and Public Finance*, 19(1), 139–171.
12. Ergashev, R. (2020). "O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot: sabablari va bartaraf etish yo'llari." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 4(10), 78–84.
13. Gërzhani, K. (2004). "Tax Evasion in Transition: Outcome of an Institutional Clash? Testing Feige's Conjecture in Albania." *European Economic Review*, 48(4), 729–745.
14. Schneider, F. (2020). "Size and Development of the Shadow Economy of 31 European and 5 other OECD Countries from 2003 to 2020". Johannes Kepler University of Linz, Department of Economics. <https://www.econ.jku.at/schneider/>



15. Medina, L., & Schneider, F. (2018). "Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?" IMF Working Paper No. 18/17. International Monetary Fund (IMF). DOI: 10.5089/9781484338636.001
16. IMRS (Institute for Macroeconomic and Regional studies) sayti ma'lumotlari. https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/yashirin_iqtisodiyot
17. World Bank. (2023). The Shadow Economy: Implications for Policy and Development. Washington D.C.: The World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
18. International Labour Organization (ILO). (2022). Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. 3rd edition. Geneva: ILO.
19. IMF. (2022). Revenue Mobilization in Developing Countries. IMF Policy Paper. <https://www.imf.org>
20. Asian Development Bank (ADB). (2021). Managing Informality: Challenges and Solutions in Asia. Manila: ADB Publishing.
21. UNESCAP. (2020). Economic and Social Survey of Asia and the Pacific. Bangkok: United Nations.
22. OECD. (2017). The Size and Sectoral Distribution of Informal Employment. Paris: OECD Publishing.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
